

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 2

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 2
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**2-son
2026**

**Международный журнал
современных научно-
технических
исследований**

**Том 2 Выпуск 2
2026**



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.



“TA’LIMDA BAHOLASH” FANINI O’QITISHDA TALABALARDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI BILAN ISHLASH KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, assistent.

Annotatsiya.

Mazkur maqolada “Ta’limda baholash” fanini o’qitishda talabalarda xalqaro baholash dasturlari bilan ishlash ko’nikmalarini rivojlantirishning metodik yechimlari yoritilgan. Fan mavzularining PIRLS, TIMSS va PISA dasturlari bilan o’zaro bog’liqligi tahlil qilinib, ularni amaliy mashg’ulotlarga integratsiya qilish yo’llari asoslangan. Shuningdek, xalqaro baholash topshiriqlarini tahlil qilish, loyihalash va baholash savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodikalar hamda ularni qo’llash bo’yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: ta’limda baholash, xalqaro baholash dasturlari, PIRLS, TIMSS, PISA, baholash savodxonligi, kompetensiyaviy yondashuv, “Kompetensiyani aniqlash va ekspert tahlili” metodikasi, “Ikki nuqtai nazar” metodikasi, “Javobdan topshiriqqa” metodikasi, rubrika, bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisi.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ У СТУДЕНТОВ НАВЫКОВ РАБОТЫ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ ПРОГРАММАМИ ОЦЕНКИ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ДИСЦИПЛИНЫ «ОЦЕНИВАНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ»

Бердимуродова Мехрубон Масуджоновна

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, ассистент.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются методические решения по развитию у студентов навыков работы с международными программами оценки качества образования в процессе преподавания дисциплины «Оценивание в образовании». Проанализирована взаимосвязь тем учебной дисциплины с международными программами PIRLS, TIMSS и PISA, а также обоснованы пути их интеграции в практические занятия. Особое внимание уделено инновационным методикам, направленным на формирование оценочной грамотности, развитие навыков анализа, проектирования и разработки заданий международного формата. Кроме того, представлены методические рекомендации по применению методик «Определение компетенции и экспертный анализ», «Две точки зрения» и «От ответа к заданию» в процессе профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: оценивание в образовании, международные программы оценки, PIRLS, TIMSS, PISA, оценочная грамотность, компетентностный подход, методика «Определение компетенции и экспертный анализ», методика «Две точки зрения», методика «От ответа к заданию», рубрика, будущий учитель начальных классов.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' SKILLS IN WORKING WITH INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS THROUGH TEACHING THE COURSE "ASSESSMENT IN EDUCATION"

Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Assistant.

Abstract.

This article presents methodological approaches to developing students' skills in working with international educational assessment programs within the course Assessment in Education. It analyzes the relationship between the course topics and the international assessment programs PIRLS, TIMSS, and PISA, and substantiates ways of

integrating them into practical classroom activities. The study also introduces innovative teaching methodologies aimed at developing assessment literacy, as well as students' abilities to analyze, design, and construct international assessment tasks. Furthermore, methodological recommendations are provided for implementing the Competency Identification and Expert Analysis, Two Perspectives, and From Answer to Task methodologies in the professional preparation of future primary school teachers.

Keywords: assessment in education, international assessment programs, PIRLS, TIMSS, PISA, assessment literacy, competency-based approach, Competency Identification and Expert Analysis methodology, Two Perspectives methodology, From Answer to Task methodology, rubric, future primary school teacher.

Kirish. So'nggi yillarda ta'lim sifati va uning natijadorligini xalqaro mezonlar asosida baholash masalasi jahon ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat o'zlashtirgan bilimlari emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va funksional savodxonlik darajasi ham muhim ko'rsatkich sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari ta'lim sifati monitoringining eng muhim vositalaridan biri sifatida keng qo'llanilmoqda. Ularning asosiy maqsadi ta'lim tizimlarining samaradorligini o'quvchilarning kompetensiyalarini baholash orqali aniqlash hamda ta'lim siyosatini takomillashtirish uchun ishonchli ma'lumotlar taqdim etishdan iborat [3].

Bugungi kunda O'zbekistonda ham xalqaro baholash dasturlarida munosib ishtirok etish, ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish hamda pedagoglarni ushbu dasturlar bilan ishlashga tayyorlash davlat ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, umumiy o'rta ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturlarini joriy etish, o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirish hamda pedagoglarning baholash madaniyatini oshirish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xalqaro baholash dasturlari turli mamlakatlarda ta'lim sifati va o'quvchilarning kompetensiyalarini yagona metodologiya hamda standartlashtirilgan baholash vositalari asosida qiyosiy tahlil qilishga xizmat qiluvchi xalqaro tadqiqotlardir.

Xalqaro baholash dasturlarining mazmuni va metodologiyasini amaliyotga samarali tatbiq etish, avvalo, bo'lajak o'qituvchilarning baholash savodxonligi (assessment literacy) darajasiga bog'liq. Zamonaviy pedagog nafaqat an'anaviy baholash usullarini, balki xalqaro baholash dasturlarida qo'llaniladigan topshiriqlarni tahlil qilish, kompetensiyaga yo'naltirilgan savollarni ishlab chiqish, rubrikalar tuzish, natijalarni interpretatsiya qilish va baholash vositalarini loyihalash ko'nikmalariga ham ega bo'lishi zarur. OECD ekspertlari ta'kidlaganidek, baholash savodxonligi pedagogning kasbiy kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, sifatli ta'limni ta'minlashning asosiy omillaridan biridir [5].

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida joriy o'quv yilidan barcha ta'lim yo'nalishlarida o'qitilishi rejalashtirilgan "Ta'limda baholash" fani alohida metodik imkoniyatlarga ega. Fan mazmunida baholashning maqsad va tamoyillari, diagnostik, formativ va summativ baholash, testologiya, baholash mezonlari, rubrikalar, baholash vositalarini ishlab chiqish hamda baholash natijalarini tahlil qilish kabi mavzular o'rin olgan bo'lib, ular xalqaro baholash dasturlarining metodologiyasi bilan uzviy bog'liq. Mazkur mavzularni xalqaro baholash dasturlari materiallari asosida tashkil etish talabalarida PIRLS, TIMSS va PISA topshiriqlarini tahlil qilish, baholash vositalarini yaratish hamda kompetensiyaga yo'naltirilgan topshiriqlarni loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning metodik ahamiyati so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ham o'z tasdig'ini topgan. Jumladan, M.A. Asqarova PIRLS va PISA dasturlari misolida ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash materiallaridan foydalanish o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish, kompetensiyaga yo'naltirilgan topshiriqlar bilan ishlash hamda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omili ekanligini asoslaydi. Tadqiqotchi olim xalqaro baholash topshiriqlarini ta'lim jarayoniga tizimli integratsiya qilish, zamonaviy baholash yondashuvlarini amaliyotga joriy etish va o'qituvchilarning baholash kompetensiyasini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi [2; B20]. Mazkur ilmiy xulosalar "Ta'limda baholash" fanini xalqaro baholash dasturlari mazmuni bilan boyitish hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ushbu dasturlar bilan ishlashga tayyorlash metodikasini takomillashtirish uchun muhim nazariy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, "Ta'limda baholash" fanini o'qitish orqali talabalarida xalqaro baholash dasturlari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish oliy pedagogik ta'limning dolzarb metodik vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada fan dasturi mazmuni asosida xalqaro baholash dasturlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar, interfaol usullar, pedagogik texnologiyalar va ularni dars jarayonida qo'llash algoritmlari yoritiladi.

Muhokama. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Ta'limda baholash" fani bo'lajak pedagoglarda baholash kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim fanlardan biridir. Fan dasturida baholashning nazariy asoslari, baholash mezonlarini ishlab chiqish, testologiya, diagnostik, formativ va summativ baholash, elektron baholash tizimlari

hamda xalqaro baholash dasturlariga oid mavzular o'rin olgan. Mazkur mavzularning mazmuni PIRLS, TIMSS va PISA dasturlarida qo'llaniladigan baholash yondashuvlari bilan uyg'unlashtirilgan holda tashkil etilganda talabalarda xalqaro baholash vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish ko'nikmalari samarali rivojlanadi.

Xalqaro baholash dasturlari bilimni reproduktiv tarzda qayta tiklashni emas, balki o'quvchilarning kompetensiyalarini, tahliliy fikrlashini, muammolarni hal qilish va olingan bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini baholashga yo'naltirilgan. Masalan, fan dasturidagi "Baholashning mohiyati va tamoyillari" mavzusini o'rganishda PIRLS va PISA dasturlarida qo'llaniladigan kompetensiyaviy baholash falsafasi tahlil qilinadi. Talabalar an'anaviy baholash va xalqaro baholash yondashuvlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash orqali baholashning maqsadi, obyekti va natijalarini qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Fan dasturidagi Blum taksonomiyasi mavzusi PIRLSning kognitiv jarayonlari hamda TIMSSning bilish darajalari bilan uzviy bog'liq. Ushbu mavzuni o'qitishda talabalar xalqaro topshiriqlarni kognitiv darajalar bo'yicha tasniflash, ularning murakkablik darajasini aniqlash hamda yangi topshiriqlarni loyihalashni o'rganadilar.

Formativ baholash mavzusi OECD tomonidan ilgari surilgan "Assessment for Learning" konsepsiyasi bilan uyg'unlashtiriladi. Mazkur mavzuda talabalar o'quvchilar faoliyatini muntazam kuzatish, konstruktiv fikr-mulohaza (feedback) berish, baholash natijalaridan o'qitishni takomillashtirish vositasi sifatida foydalanish hamda refleksiv baholashni tashkil etish usullarini egallaydilar [5].

Fan dasturidagi rubrikalar va baholash mezonlarini ishlab chiqish mavzusi PIRLS hamda PISA dasturlarida qo'llaniladigan baholash mezonlari (Scoring Guides) asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bu orqali talabalar ochiq javobli topshiriqlar uchun analitik va yaxlit (holistic) rubrikalarni ishlab chiqish, javoblarni mezon asosida baholash va ekspert baholash jarayonini modellashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi [3].

Test topshiriqlarini ishlab chiqish mavzusi TIMSS va PIRLS Assessment Framework hujjatlarida tavsiya etilgan topshiriq konstruksiyasi asosida tashkil etilganda talabalar kompetensiyaga yo'naltirilgan test topshiriqlarini yaratish, distraktorlarni ishlab chiqish, topshiriqlarning validligi va ishonchliligini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar [4].

Fan dasturidagi elektron baholash mavzusi ePIRLS, PISA Computer-Based Assessment hamda TIMSS Digital Assessment tajribalari bilan boyitilishi mumkin. Mazkur mavzuda raqamli baholash platformalari, interaktiv topshiriqlar, avtomatik baholash vositalari va elektron portfoliolar bilan ishlash usullari o'rganiladi. Natijada talabalarda raqamli baholash vositalarini loyihalash va ulardan foydalanish kompetensiyalari shakllanadi.

Shuningdek, fan dasturidagi "Xalqaro baholash dasturlari" mavzusi faqat nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan cheklanmasdan, PIRLS, TIMSS va PISA topshiriqlarini metodik tahlil qilish, ularning tuzilishi, kognitiv darajalari, baholash mezonlari hamda kompetensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlar asosida tashkil etilishi lozim. Bunday yondashuv talabalarni xalqaro baholash dasturlarini amaliyotda qo'llashga tayyorlash imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Ta'limda baholash" fanining deyarli barcha mavzulari xalqaro baholash dasturlari mazmuni bilan metodik jihatdan integratsiyalash imkoniyatiga ega. Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish talabalarda baholash savodxonligini, topshiriqlarni ishlab chiqish, rubrikalar tuzish, natijalarni tahlil qilish va xalqaro baholash vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval

"Ta'limda baholash" fani mavzularining xalqaro baholash dasturlari bilan metodik uyg'unligi

Fan dasturi mavzusi	Xalqaro baholash dasturlari bilan bog'liqligi	Shakllantiriladigan ko'nikma
Baholashning mohiyati	PIRLS, PISA baholash falsafasi	Kompetensiyaviy baholashni tushunish
Blum taksonomiyasi	PIRLS va TIMSS kognitiv darajalari	Topshiriqlarni kognitiv tahlil qilish
Diagnostic baholash	PISA Diagnostic Approach	O'quv ehtiyojlarini aniqlash
Formativ baholash	OECD Assessment for Learning	Samarali feedback berish
Summativ baholash	TIMSS Achievement Assessment	Natijalarni umumlashtirish
Rubrikalar	PIRLS Scoring Guides	Baholash mezonlarini ishlab chiqish
Test topshiriqlari	TIMSS Item Design	Kompetensiyaviy test tuzish
Elektron baholash	ePIRLS, PISA CBA	Raqamli baholash vositalaridan foydalanish
Xalqaro baholash dasturlari	PIRLS, TIMSS, PISA	Xalqaro topshiriqlarni metodik tahlil qilish

Natijalar. Xalqaro baholash dasturlari bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilangina cheklanmaydi. Talabalarda xalqaro baholash topshiriqlarini tahlil qilish, kompetensiyalarni aniqlash, baholash vositalarini ishlab chiqish va ularni ekspertiza qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Shu maqsadda "Ta'limda baholash" fanini o'qitish jarayonida quyidagi mualliflik metodikalarini qo'llash tavsiya etiladi.

“Kompetensiyani aniqlash va ekspert tahlili” metodikasi

“Kompetensiyani aniqlash va ekspert tahlili” metodikasi xalqaro baholash dasturlariga oid topshiriqlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tahlil qilish hamda baholash vositalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Mazkur metodika, asosan, “Ta'limda baholash” fanining baholash mezonlari, rubrikalar, test topshiriqlarini ishlab chiqish hamda PIRLS, TIMSS va PISA dasturlariga bag'ishlangan mavzularini o'qitishda qo'llaniladi. Mashg'ulotlarni tashkil etishda xalqaro baholash dasturlaridan olingan topshiriqlar, Blum taksonomiyasi jadvali, kompetensiyalar tavsifi, baholash rubrikalari hamda interaktiv taqdimot vositalaridan foydalaniladi.

Mashg'ulot davomida talabalar dastlab xalqaro baholash dasturlaridan olingan topshiriq bilan tanishadilar va uning mazmuni, tuzilishi hamda javob variantlarini tahlil qiladilar. Keyingi bosqichda topshiriq orqali baholanayotgan kompetensiyalar aniqlanib, ularning tanlanish sabablari asoslab beriladi. So'ngra topshiriq Blum taksonomiyasi hamda PIRLS yoki TIMSS dasturlarida qo'llaniladigan kognitiv darajalar bilan taqqoslanib, uning murakkablik darajasi va o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga qo'yadigan talablari baholanadi.

Tahlil natijalariga tayangan holda talabalar topshiriq uchun baholash mezonlari va deskriptorlarini ishlab chiqadilar. Tayyorlangan materiallar guruhlar o'rtasida almashilib, o'zaro ekspertiza qilinadi. Ekspertiza jarayonida topshiriqning kompetensiyaga mosligi, savolning aniqligi, baholash mezonlarining to'liqligi hamda xalqaro baholash standartlariga muvofiqligi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Yakuniy bosqichda aniqlangan kamchiliklar muhokama qilinib, topshiriqning takomillashtirilgan varianti ishlab chiqiladi va umumiy xulosalar taqdim etiladi.

Mazkur metodika talabalarda xalqaro baholash topshiriqlarini ilmiy-metodik nuqtayi nazardan tahlil qilish, baholanayotgan kompetensiyalarni aniqlash, kognitiv murakkablik darajasini asoslash, baholash rubrikalarini ishlab chiqish hamda ekspertlik faoliyatini amalga oshirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, metodika bo'lajak o'qituvchilarda xalqaro baholash dasturlarining metodologiyasini chuqur anglash va baholash vositalarini mustaqil ishlab chiqish kompetensiyasini shakllantirish uchun samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

“Baholash auksioni” metodikasi

“Baholash auksioni” metodikasi gamifikatsiya texnologiyasi asosida tashkil etilib, xalqaro baholash dasturlariga oid topshiriqlarni tanqidiy tahlil qilish va takomillashtirishga yo'naltiriladi. Mazkur metodikada auditoriya shartli ravishda “auksion maydoni”ga aylantiriladi. O'qituvchi PIRLS, TIMSS yoki PISA dasturlaridan olingan turli sifat darajasidagi topshiriqlarni “lot” sifatida taqdim etadi. Har bir topshiriq xalqaro standartlarga mosligi, kompetensiyaga yo'naltirilganligi va baholash mezonlarining aniqligi jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Mashg'ulot boshida talabalar kichik guruhlar bo'linib, ularga shartli reyting ballari yoki “auksion kapitali” taqdim etiladi. Guruhlar berilgan vaqt davomida topshiriqlarni tahlil qilib, qaysi lotni tanlash bo'yicha qaror qabul qiladilar. Tanlangan topshiriq xalqaro baholash mezonlari asosida ekspertiza qilinadi, undagi metodik kamchiliklar aniqlanadi va takomillashtirilgan variant ishlab chiqiladi. Har bir to'g'ri aniqlangan nuqson va asosli taklif uchun guruhga qo'shimcha reyting ballari beriladi.

Mashg'ulot yakunida guruhlar o'zlari takomillashtirgan topshiriqlarni taqdim etadilar va ular umumiy ekspertiza asosida muhokama qilinadi. Eng sifatli va xalqaro standartlarga eng yaqin ishlab chiqilgan topshiriq “eng muvaffaqiyatli lot” sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur metodika talabalarda topshiriqlarni tezkor tahlil qilish, ularning metodik sifatini baholash, xalqaro baholash talabalariga mos ravishda qayta ishlab chiqish hamda jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'yin elementlaridan foydalanish talabalarining darsdagi faolligi va motivatsiyasini oshiradi.

“PIRLS konstruktori” metodikasi

“PIRLS konstruktori” metodikasi loyiha asosida o'qitish texnologiyasiga tayangan bo'lib, talabalarining xalqaro baholash materiallarini mustaqil ishlab chiqish faoliyatini tashkil etishga qaratilgan. Mazkur metodikada talabalar tayyor topshiriqlarni tahlil qilish bilan cheklanmay, balki xalqaro baholash talablari asosida yangi baholash vositalarini loyihalaydilar.

Mashg'ulotning dastlabki bosqichida har bir guruh boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan badiiy yoki axborot matnini tanlaydi. Keyingi bosqichda tanlangan matn asosida PIRLS metodologiyasiga mos topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi. Topshiriqlar o'qib tushunishning turli kognitiv darajalarini qamrab olishi, ularning har biri uchun baholash mezonlari va javob kalitlari ishlab chiqilishi lozim. Shundan so'ng guruhlar tayyorlagan materiallar o'zaro almashilib, boshqa guruh tomonidan sinovdan o'tkaziladi. Olingan natijalar va tavsiyalar asosida baholash paketi takomillashtiriladi.

Metodikaning yakuniy bosqichida har bir guruh o'zining tayyor baholash paketini taqdim etadi. Taqdimot jarayonida topshiriqlarning kompetensiyaga yo'naltirilganligi, kognitiv darajalarga mosligi va baholash mezonlarining aniqligi muhokama qilinadi. Mashg'ulot yakunida barcha sifatli ishlardan elektron “PIRLS topshiriqlar banki” shakllantiriladi.

Mazkur metodika talabalarda xalqaro baholash topshiriqlarini loyihalash, baholash vositalarini yaratish, ularni amaliy sinovdan o'tkazish va takomillashtirish bo'yicha kompleks kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi.

“Xalqaro ekspertlar kengashi” metodikasi

Mazkur metodika simulyatsion ta’lim texnologiyasiga asoslanib, talabalarda xalqaro baholash dasturlari bilan ishlash jarayonini ekspertlik faoliyati orqali o’zlashtirishga xizmat qiladi. Mashg’ulot davomida auditoriyada xalqaro baholash markazi faoliyati modellashtiriladi va talabalar ekspert, metodist, psixometr, test ishlab chiquvchi hamda moderator kabi rollarni bajaradilar. Har bir guruhga PIRLS, TIMSS yoki PISA dasturlaridan olingan topshiriqlar taqdim etilib, ular xalqaro baholash mezonlari asosida tahlil qilinadi.

Muhokama jarayonida talabalar, avvalo, topshiriqning qaysi kompetensiyani baholashga qaratilganligini aniqlaydilar. Shundan so’ng uning kognitiv darajasi Blum taksonomiyasi hamda xalqaro baholash dasturlarida qo’llaniladigan kognitiv mezonlar bilan taqqoslanadi. Keyingi bosqichda topshiriqning mazmuni, savolning aniqligi, javob variantlarining sifati va baholash mezonlari ekspertlar kengashi tomonidan muhokama qilinadi. Har bir rol egasi o’zining kasbiy nuqtayi nazaridan taklif va tavsiyalarni bildiradi, yakunda esa guruh tomonidan topshiriqning takomillashtirilgan varianti ishlab chiqiladi.

Metodikaning yakuniy qismida barcha guruhlar o’z ekspert xulosalarini taqdim etadilar va o’zaro taqqoslash orqali eng maqbul yechimlar aniqlanadi. Ushbu metodika talabalarda xalqaro baholash vositalarini tahlil qilish, ekspertlik faoliyatini amalga oshirish, baholash mezonlarini asoslash hamda jamoaviy muhokama asosida qaror qabul qilish ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Ikki bosqichli tahlil” metodikasi (Cognitive Walkthrough asosida)

“Ikki bosqichli tahlil” metodikasi xalqaro baholash topshiriqlarini o’quvchi va ekspert nuqtayi nazaridan ketma-ket tahlil qilishga asoslangan. Mazkur metodikada talaba dastlab boshlang’ich sinf o’quvchisi roliga topshiriqni bajaradi. Bu bosqichda u savolni qanday qabul qilishi, matnni qanday tushunishi va javobni qanday shakllantirishini amalda sinab ko’radi. Bunda topshiriqni bajarish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklar, tushunarsiz iboralar yoki ortiqcha murakkab elementlar qayd etib boriladi.

Keyingi bosqichda talaba o’z rolini o’zgartirib, ekspert sifatida aynan shu topshiriqni tahlil qiladi. U topshiriqning qaysi kompetensiyani baholashga xizmat qilishi, kognitiv murakkablik darajasi, savolning aniqligi, baholash mezonlarining mosligi hamda xalqaro baholash standartlariga muvofiqligini baholaydi. Tahlil yakunida topshiriqning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, uni takomillashtirish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mazkur metodika talabalarga xalqaro baholash topshiriqlarini nafaqat ishlab chiquvchi yoki baholovchi, balki o’quvchi nuqtayi nazaridan ham ko’rish imkonini beradi. Natijada topshiriqlarni loyihalashda yosh xususiyatlarini hisobga olish, kognitiv yuklamani to’g’ri belgilash va topshiriqlarning metodik sifatini oshirish bo’yicha amaliy ko’nikmalar shakllanadi.

“Javobdan topshiriqqa” metodikasi (Reverse Assessment asosida)

“Javobdan topshiriqqa” metodikasi xalqaro baholash topshiriqlarini konstruktiv tahlil qilish va ularni mustaqil loyihalashga yo’naltirilgan innovatsion metodikadir. Ushbu metodikada o’qituvchi talabalarga tayyor javob, o’quvchi javobi yoki baholash mezonlari (rubrika)ni taqdim etadi, biroq unga mos topshiriq berilmaydi. Talabalar berilgan javobni tahlil qilib, aynan qanday savol yoki topshiriq ushbu javobni yuzaga keltirishi mumkinligini aniqlashga harakat qiladilar.

Topshiriq ishlab chiqilgandan so’ng talabalar uning qaysi kompetensiyani baholashi, qanday kognitiv darajaga mansubligi hamda PIRLS yoki boshqa xalqaro baholash dasturlari talabalariga qanchalik mos kelishini asoslaydilar. Keyingi bosqichda ishlab chiqilgan topshiriqlar guruhlar o’rtasida almashilib, o’zaro ekspertiza qilinadi. Zarur hollarda savolning mazmuni, javob variantlari va baholash mezonlari qayta ishlanadi.

Mazkur metodika talabalarni tayyor topshiriqlarni o’rganishdan ko’ra ularning ichki tuzilishini anglashga va baholash vositalarini mustaqil loyihalashga undaydi. Ayniqsa, PIRLS dasturidagi ochiq javobli topshiriqlar va baholash rubrikalarini o’rganishda ushbu metodika samarali bo’lib, talabalarda topshiriq yaratish, mantiqiy fikrlash hamda baholash dizaynini ishlab chiqish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Taklif etilgan innovatsion metodikalarni “Ta’limda baholash” fanining turli mavzulariga maqsadli integratsiya qilish xalqaro baholash dasturlari bilan ishlash ko’nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Mazkur metodikalarni tanlashda fan mavzusining mazmuni, shakllantiriladigan kompetensiya va darsning didaktik maqsadi hisobga olinishi lozim.

“Kompetensiyani aniqlash va ekspert tahlili” metodikasi, asosan, baholash mezonlari, rubrikalar hamda xalqaro baholash topshiriqlarini tahlil qilishga bag’ishlangan seminar mashg’ulotlarida qo’llanishi maqsadga muvofiq. Ushbu metodika talabalarda topshiriqlarning kompetensiyaviy yo’nalishini aniqlash, ularning kognitiv murakkabligini baholash va baholash mezonlarini ishlab chiqish ko’nikmalarini shakllantiradi.

“Ikki nuqtayi nazar” metodikasi PIRLS tipidagi matnlar bilan ishlash jarayonida samarali hisoblanadi. Talabalar topshiriqni avval o’quvchi sifatida bajarib, keyinchalik ekspert sifatida tahlil qilganlari sababli topshiriqlarning yosh xususiyatlariga mosligi, tushunarligi va kognitiv yuklamasi chuqurroq baholanadi. Bu metodika reflektiv fikrlash va metodik tahlil ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Javobdan topshiriqqa” metodikasi esa test topshiriqlarini ishlab chiqish va ochiq javobli savollar bilan ishlash

mavzularida qo'llanishi tavsiya etiladi. Tayyor javob yoki rubrika asosida topshiriq yaratish jarayoni talabalarda baholash vositalarining ichki tuzilishini anglash, topshiriq va baholash mezonlari o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish hamda yangi topshiriqlarni konstruktiv loyihalash kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Ushbu metodikalarni amaliy mashg'ulotlar, seminarlar, workshop shaklidagi darslar hamda Moodle, Google Classroom kabi raqamli ta'lim platformalari bilan uyg'unlashtirish orqali ularning samaradorligini yanada oshirish mumkin. Ayniqsa, elektron rubrikalar, onlayn ekspertiza va guruhlararo o'zaro baholash mexanizmlaridan foydalanish xalqaro baholash dasturlariga xos bo'lgan zamonaviy baholash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Maqolada "Ta'limda baholash" fanini o'qitish orqali talabalarda xalqaro baholash dasturlari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fan dasturidagi baholash mezonlari, rubrikalar, testologiya, formativ va summativ baholash, elektron baholash hamda xalqaro baholash dasturlariga oid mavzular PIRLS, TIMSS va PISA metodologiyasi bilan mazmunan uyg'unlashtirilganda bo'lajak pedagoglarda baholash savodxonligi va xalqaro baholash vositalari bilan ishlash kompetensiyalari samarali shakllanadi.

Taklif etilgan "Kompetensiyani aniqlash va ekspert tahlili", "Ikki nuqtayi nazar" hamda "Javobdan topshiriqqa" metodikalari talabalarning xalqaro topshiriqlarni tahlil qilish, kompetensiyalarni aniqlash, baholash mezonlarini ishlab chiqish, topshiriqlarni qayta loyihalash va ekspertlik faoliyatini amalga oshirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodikalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki talabalarning mustaqil fikrlashi, refleksiv tahlili va konstruktiv loyihalash faoliyatini ham faollashtiradi.

Shuningdek, innovatsion metodikalarni fan mavzulariga maqsadli integratsiya qilish orqali xalqaro baholash dasturlariga xos bo'lgan kompetensiyaviy yondashuv, kognitiv darajalarni tahlil qilish, rubrika asosida baholash va topshiriqlar sifatini ekspertiza qilish madaniyatini shakllantirish mumkinligi aniqlandi. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy xalqaro baholash talablariga mos holda tayyorlash uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, "Ta'limda baholash" fanining xalqaro baholash dasturlari bilan integratsiyalashgan holda o'qitilishi bo'lajak pedagoglarning baholash savodxonligini oshirish, kompetensiyaga yo'naltirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish va xalqaro baholash vositalaridan samarali foydalanish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda ***"Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"***gi 997-son Qarori.
2. Asqarova M. A. *Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishning metodik asoslarini takomillashtirish (PISA va PIRLS misolida)*: dis. ... falsafa doktori (PhD) ped. fan. bo'yicha. – Namangan, 2024. – 202 b.
3. IEA. *PIRLS 2021 Assessment Frameworks*. – Amsterdam: International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), 2020.
4. IEA. *TIMSS 2023 Assessment Frameworks*. – Amsterdam: IEA, 2024.
5. OECD. *PISA 2022 Results. Volume I: The State of Learning and Equity in Education*. – Paris: OECD Publishing, 2023.